



TALABALARNING NEONTOLOGIYA VA BOLALAR KLINIK FANLARIDAN O'QUV VA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Anvarova Z.Q

*Farg'ona jamoat salomatlik tibbiyot instituti
Pediatriya 1 kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: tibbiy o'qitish, tibbiy bilim, yuqorisifat, tibbiy xizmat, revmatizm kasaligi, davolash, tavsif, kasal, muolaja, tibbiy ko'nikma, tibbiy ta'lim, ta'limiy maqsad.

Ключевые слова: медицинское образование, медицинские знания, высокое качество, медицинская услуга, ревматическая болезнь, лечение, описание, пациент, лечение, медицинские навыки, медицинское образование, образовательная цель.

Key words: medical education, medical knowledge, high quality, medical service, rheumatic disease, treatment, description, patient, treatment, medical skills, medical education, educational goal.

Резюме:

Maqolada tibbiy o'qitishda talabalarning tibbiy bilimini takomillashtirishda bo'g'imlarning anatomik va funksional xususiyatlarini pedagogik-metodik yondashuvamaliyotga tatbiq etishdazamonaviy davolash hamda didaktik yondashuv va uni davolashning metodik usullari keng yoritilgan. Neonologiyafanini o'qitishda talabalarning dars mashg'ulotlarida zamonaviy metodik yondashuvlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, talabalarni tibbiy mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va tibbiy mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni dars mashg'ulotlarida qo'llay olishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Резюме:

В статье современный лечебно-дидактический подход и методические методы его лечения широко освещаются в медицинском образовании, в совершенствовании медицинских знаний студентов, при внедрении педагогико-методического подхода в практику анатомо-функциональной медицины. Особенности суставов. В преподавании неонтологии представлены идеи, которые помогут студентам самостоятельно мыслить в медицине, расширить сферу творческих исследований и медицинских логического мышления и использовать их на своих занятиях, используя современные методические подходы и современные информационно-коммуникационные технологии.

Summary:

This article is devoted to modern treatment and didactic approach and methodical methods of its treatment are widely covered in the medical education, in the improvement of the medical knowledge of students, in the implementation of the pedagogical-methodical approach to the practice of the anatomical and functional characteristics of the joints. Ideas are presented that will help students to think independently in medicine, expand the scope of creative research and



medical logical thinking, and use them in their classes, using modern methodological approaches and modern information and communication technologies in teaching neontology.

Kirish. Jahonda tibbiy ta'lim tizimida o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Zero, tibbiy ta'lim barcha ta'lim yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham uni o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi. Bugun dunyo ta'lim tizimida o'qitish metodikasiga andoza bo'layotgan tibbiy ta'limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro tibbiy ta'limda o'qitish metodikasida klinik ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish o'quv topshiriqlari sifatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda. Xalqaro tajribada modul-kredit tizimi o'zining bir qator avzalliklarga egaligi bilan ajralib tarmoqda. Bunda talabaga ta'lim berish, uni mustaqil ishlashga yo'naltirish ekanligi zamonaviy talablarga nihoyatda mos keladi.

Dunyoda tibbiy oliy ta'lim tizimi talabaning mustaqil faoliyatiga asoslangan. Rivojlangan xorijiy davlatlarda klinik fabnlarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda o'quv topshiriqlarining mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va tibbiy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator neontologiya, pediatriya fanini o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Daminov T.A., Xolmatova B.T., Boboyeva U.R., va "Bolalar kasalliklari propedevtikasi" – Ashurova D. kabilar o'z darsliklarida pediatriya darsliklarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. Maxmudova D.I., Axmedov M.N., Tolipova A.L. va boshq. Ko'krak suti bilan boqish, M.A.Shadmanov esa tibbiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaning tashkil etish metodikasini takomillashtirish tibbiy ta'limni o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan.

Ta'kidlash joizki, tibbiy ta'limni o'qitish metodikasiga turli davrlarda tibbiyot olimlari ham dastur, darslik mualliflari sifatida o'zlarining munosib hissaslarini qo'shdilar. Abduraxmonova L.A. Shigakova L.A., kabilar shular jumlasidandir. Abduraxmonova L.A tibbiy ta'limda o'qitishni maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor A.G.Gadayev g'oyalari tayanib o'qitishda yangi – tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda innovatsion va simulyatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiyasini

takomillashtirish ortiqcha fanlardan voz kechib, talabalarda tibbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, klinik fanlar orqali talaba tafakkuriga tibbiy bilimlarni singdirish, talabani turli tibbiy vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo‘nalishni boshlab berdi.

Tadqiqotchi Shigakova L. A. Biologiyani o‘qitishda talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda virtual dasturlar va didaktik vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish tibbiy ta‘limida ta‘lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilgan. Bu borada metodist olimlar Abduraxmonova L.A., Shadmanov M.A., Shigakova L.A., tadqiqot ishlarini alohida ta‘kidlash lozimki ular tomonidan tibbiy ta‘limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo‘lib turgan tiobbiy ta‘lim metodikasi ustida ishlash, klinik ko‘nikmalarini tibbiyotdagi fanlar bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish texnologiyasi ustida ish olib borgan, tibbiy ta‘lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o‘rganilgan. Bolalar kasalliklari yuzasidan Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboeva O.R. larning yaratgan darsliklari tibbiy ta‘limda neontologik yondashuvlarni rivojlantirishga zamin yaratdi. Xalmatova B.T., Bobomuratov T.A. Peditriyada sindromal diagnostika nomli o‘quv qo‘llanmasida aynan bolalarda kasalliklarni erta aniqlash usullari tadqiq etilgan. Rus pedagoglari A.N.Leontev, J. A., Ponomarev, S.L.Rubenshteyn kabilar o‘quv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o‘rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, Leontiev “topshiriq” tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: “Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo‘yilgan maqsaddir”. Tibbiy ta‘limda Belokon N.A., Kuberger M.B., Belozero Yu.M., A.A.Baranova, Denisov M. Yu. Kaganov S.Yu. S.Yu. Kaganova. Lasisa O.I. , Lasisa T.S., Moshich P.S., V.M.Sidelnikova, D.Yu.Krivchenya., Nazirov F.G., Denisov I.N., Ulumbekova E.G., R.E.Bermana, V.K.Vogana., A.A.Baranova., Paykov V.L., Xaskel S.B., Erman L.V., Pariyskaya T.V., M.Ya. Studenikina i porf. A.A.Yakovlevoy., N.R.Paleeva, Shabalov N.P. ishlari tadqiqot darajasida tahlilga tortildi va o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon pedagogikasida o‘quv topshiriqlarning metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug‘illangan. Shuni ta‘kidlash joizki, G‘arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e‘tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan.

Tibbiyotda Geppe N.A., Vasilevskiy I.V., Nelson., Robert M. Kliegman, Bonita Stanton, Joseph St. Geme., M. William, Schwartz, Linda King-Thomas, Bonnie J. Hacker, Margaret C. Heagarty., William J. Moss larning ishlari neontologiya, bolalar kasalliklarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega manba sifatida tadqiq



etildi. Xorijiy tajribalardan o‘z vaqtida xulosa chiqargan A.G.Gadayev tibbiy pragmatik yondashuvni O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimiga birinchi bo‘lib olib kirdi. Mazkur yondashuv o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlandi va tibbiy ta’limda tibbiy ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi joriy etildi.

Shuning uchun tibbiy ta’limida amaldagi oqitish metodikasiga doir o‘quv topshiriqlari hali ishlab chiqilmagan dastlabki qadamlardir. Bugungi pedagogik, didaktik sharoit o‘quv topshiriqlarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo qiladi, shuningdek, savol, mashq va topshiriqlarni ishlab chiqishda blum taksanomiyasini ham inobatga olish lozim.

Tahlil va natijalar. Tibbiy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim topshiriqlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o‘rganish va pragmatik mazmundagi o‘quv topshiriqlarining neontologiya ta’limidagi o‘rnini belgilashda tibbiy ta’limda modul-kredit tizimi uchun neontologiya fanlaridan mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari tuzish, uning dastur talablariga mosligini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, ularni o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish hamda tibbiy ta’limda modul-kredit tizimi uchun neontologiya fanlaridan mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari tuzish orqali talabalarda tibbiy tushunish, savodli va mazmunli tibbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish lozim.

Tibbiy ta’limda modul-kredit tizimi uchun neontologiya fanlaridan mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari tuzish asosida tibbiy fikrlash, tashxislash ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish

tibbiy ta’limda modul-kredit tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish va topshirilar bilan ishlashda qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash;

tibbiy ta’limda modul-kredit tizimi uchun neontologiya fanlaridan mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari tuzish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba orqali darsliklar mazmunida, neontologiya darslarida sinab ko‘rish va olingan xulosalarni umumlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzishning pedagogik psixologik xususiyatlari va o‘quv topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik mustaqil topshiriqlarni bajarishga ongli yondashish, didaktik, o‘qish va o‘rganishning tizimli xarakter kasb etishi, modul-kredit tizimi uchun neontologiyada mashq, savol va topshiriq tushunchalariga oid komponentlar bilan mustaqil topshiriqlar tuzishning ichki va tashqi yo‘nalishlardagi integratsiyasini real ta’limiy sharoitlarda qo‘llash asosida aniqlashtirish hamda tibbiy ta’lim didaktikasida savol, mashq, topshiriqlar tuzish, pragmatik usulda yondashishni belgilovchi mezonlar, ya’ni infografika usulida tushuntirishga doir mustaqil va o‘quv topshiriqlar ish shaklini baholash,



pedagogik ta'lim traektoriyalarini nazariy va amaliy belgilash, elektron bibliografik axborot qidirishga oid media ta'lim texnologiyalarini kiritish asosida takomillashtirish va modul-kredit tizimini rivojlantirish imkonini beruvchi, mustaqil va o'quv topshiriqlar tuzishning didaktik ta'minotining pedagogik xususiyatlari neontologiya ta'lim mazmunini rivojlantirishda nazariy jihatlar va metodik ta'minot kontekstual, differensial-semantik, mantiqiylik, bosqichli ketma-ketlik tamoyillari asosida aniqlashtirish hamda modul-kredit tizimi uchun neontologiya fanlaridan didaktik-metodik vazifalarni o'rganishga doir mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tashkil etish va ularni baholash mexanizmlari, informatsion va innovatsion metodik yondashuvlarni imitatsiyalashda tizimlilik, izchillik g'oyalarni generatsiyalash, modul-kredit tizimiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish lozim. Neontologiya fanlarini o'qitish jarayonida matn ustida, ishlash, grafik organayzerlardan foydalanish orqali tibbiy ko'nikmalar rivojlanganligi, talabalarga neontologiya ta'lim mamunini to'g'ri va mantiqli savol berishga o'rgatishning ilmiy-metodik va didaktik ta'minoti taklif etilgan.

Tibbiy ta'limda neontologiya fanini o'qitish orqali talabalarda bolalar kasalliklarini erta aniqlash, davolashga oid tibbiy ko'nikmalarini shakllantirish, tibbiy savodxonlik, tibbiy lug'at boyligini oshirish va mustaqil ishlay olish kabi tibbiy ko'nikmalarni kompleks shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinadi, tibbiy ta'limda modul-kredit tizimi uchun neontologiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish o'qituvchilarining o'quv topshiriqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqishga doir tibbiy ko'nikma va malakalari shakllantirilgan, dars jarayoniga pragmatik yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasi joriy qilinadi, tadqiqot natijalaridan tibbiy kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi DTS va o'quv dasturlari, shuningdek, darsliklar yaratishda foydalaniladi.

Xulosa. Ushbu maqolada pediatriya fanlarini o'rganishda, neontologiya o'qitish metodikasini takomillashtirishda, bolalar kasalxonasini tuzilishi, O'zbekistonda pediatriyani rivojlanish tarixi, bola organizmini anatomo-fiziologik xususiyatlari, bolalar organizmining asosiy jarohatlanish simptomlari va sindromlari, semiotikasi, sog'lom va bemor bolalarni ovqatlantirish tamoyillari, bolalar kasalxonasini ishlash tamoyillari, kasallik tarixini to'ldirish qoidalarini, bolalardan anamnez yig'ishni o'ziga xos xususiyatlarini, obyektiv tekshirish qoidalari va ketma - ketligini, bolalarga belgi, simptom, sindromlarga ko'ra birlamchi sindromal tashxis qo'yishni, umumiy qon, siydik, axlat tahlillarini interpretatsiya qilishni, bolalarga belgi, simptom, sindromlarga ko'ra birlamchi sindromal tashxis qo'yishni, bir yoshgacha bolalarni ko'krak bilan boqishni zamonaviy tamoyillarini, sun'iy va aralash ovqatlantirish qoidalarini, bir yoshdan katta bolalarni ovqatlantirishni o'ziga xos xususiyatlarini, sut mahsulotlari va



qo‘shimcha ovqat tayyorlash texnologiyalarini bilishi va ulardan foydalana olishi; bolalar kasalxonasida kasallik tarixini grammatik va stilistik jihatdan to‘g‘ri to‘ldirish, bolalar va o‘smirlarda jismoniy va asab ruhiy rivojlanishni baholashni zamonaviy usullari, sog‘lom va bemor bolalardan anamnez yig‘ish; shuningdek sog‘lom va bemor bolalarni teri, teri osti yog‘ qavatini, suyak-mushak tizimini nafas tizimini, yurak qon-tomir tizimini, hazm tizimini, siydik hosil qilish va ajratish tizimini, qon yaratish tizimini tekshirish, bolani ko‘krakka qo‘yish, “Kenguru” texnikasini, ko‘krak sutini sog‘ish, bolani shishachadan ovqatlantirish; bolalar kasalxonasida kasallik tarixini grammatik va stilistik jihatdan to‘g‘ri to‘ldirish, bolalarni fizikal tekshirish, qon, siydik, ahlat tahlillari ko‘rsatkichlarini interpretatsiya qilish, onalarga bir yoshgacha bolalarni ko‘krak suti ovqatlantirish, bir yoshdan katta bolalarni ovqatlantirish bo‘yicha maslahat berish tibbiy ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Tibbiy ta‘limda tutgan o‘rnini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur maqolada aks etgan nazariy qarashlar shu yo‘nalishdagi yangi tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Daminov T.A., Xolmatova B.T., Boboyeva U.R. Bolalar kasalliklari.–T.:2013.– 277 b.
2. Ashurova D.T. va boshq. “Bolalar kasalliklari propedevtikasi”T.: 2018. –1236.
3. Maxmudova D.I., Axmedov M.N., Tolipova A.L. va boshq. Ko‘krak suti bilan boqish.T.: 2003. Meditsina nashriyoti.
4. Shadmanov M.A. Tibbiy ta‘lim jarayonida fanlararo integratsiyanim tashkil etish metodikasini takomillashtirish Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. TTA. – T.: 2023.– 197 b.
5. Abduraxmonova L.A. Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda innovatsion va simulyatsion ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyasini takomillashtirish Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. –T.:2022. –192 b.
6. Shigakova Lyusiya Anvarovna Sovershenstvovanie metodiki ispolzovaniya virtualnix programm i didakticheskix sredstv dlya razvitiya issledovatel'skix umeniy studentov pri obuchenii biologii (na primere meditsinskix vuzov) Avtoreferat diss...dok. ped. nauk.PhD – T.: – 2024. -35 s.
7. Abduraxmonova L.A. Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda innovatsion va simulyatsion ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyasini takomillashtirish Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. –T.:2022. –192 b.
8. Shigakova L. A. Sovershenstvovanie metodiki ispolzovaniya virtualnix programm i didakticheskix sredstv dlya razvitiya issledovatel'skix umeniy studentov pri obuchenii biologii (na primere meditsinskix vuzov) Avtoreferat diss...dok. ped. nauk.PhD – T.: – 2024. -35 s.
9. Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboeva O.R. Bolalar kasalliklari . Darslik. - T.: Tafakkur Bostoni. 2013 y.
10. Xalmatova B.T., Bobomuratov T.A. Pediatriyada sindromal diagnostika. –o‘quv qo‘llanma. T.: TTA bosmaxonasi, 2010 y.